

**IMOM AL-BUXORIY MEROSIDA “AL-JOME’ AS-SAHIH”  
ASARINING ILMIY VA DIDAKTIK AHAMIYATI**

**Madaminova Mahliyoixon Ubaydullo qizi**

*Farg‘ona davlat universiteti*

*Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)*

*yo‘nalishi 25.105-guruh talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Imom al-Buxoriyning “Al-jome’ as-sahih” asari ilmiy, badiiy hamda didaktik jihatdan tahlil qilinadi. Asarning hadis ilmidagi o‘rni, uning tarbiyaviy ahamiyati, ifoda uslubi va mazmuniy chuqurligi keng yoritiladi. Shuningdek, hadis ilmining mohiyati izohlanib, boshqa mashhur muhaddislar, xususan Imom at-Termiziy merosi bilan qiyosiy tahlil amalga oshiriladi. Maqolada ayrim hadislar misolida asarning inson tarbiyasidagi o‘rni ochib beriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Imom Buxoriy, Al-Jome’ as-sahih, hadis, hadisshunoslik, ma’naviy me’ros, muhaddis, Termiziy, Sahih al-Buxoriy, o‘dob-axloq.*

**Abstract:** *This article analyzes Al-Jami' as-Sahih by Imam al-Bukhari from scientific, literary, and didactic perspectives. The work's position in the science of hadith, its educational significance, expressive style, and depth of content are thoroughly examined. In addition, the essence of hadith science is explained, and a comparative analysis is conducted with other prominent scholars of hadith, particularly Imam at-Tirmidhi and his legacy. The article also highlights the role of the work in human moral development through examples of selected hadiths.*

**Key words:** *Imam al-Bukhari, Al-Jami' as-Sahih, Hadith, Hadith studies, spiritual heritage, muhaddith (hadith scholar), Imam at-Tirmidhi, Sahih al-Bukhari, ethics and morality.*

**Kirish:** *Insoniyat tarixida axloqiy qarashlar va ma’naviy qadriyatlar shakllanishida turli manbalar muhim rol o‘ynagan bo‘lsa, ular orasida hadislar alohida o‘rin tutadi. Hadislar insonning kundalik hayoti, uning xulq-atvori, boshqalar bilan munosabati va ichki dunyosini tartibga solishga xizmat qiladigan qisqa, lekin mazmunan nihoyatda boy fikrlarni o‘z ichiga oladi. Shu jihatdan qaraganda, hadislar nafaqat diniy, balki ijtimoiy va tarbiyaviy ahamiyatga ham ega bo‘lgan manbalardan biridir. Hadis ilmining rivojlanishida Imom al-Buxoriy ning xizmatlari beqiyos bo‘lib, uning “Al-jome’ as-sahih” asari eng ishonchli va mukammal to‘plamlardan biri sifatida e’tirof etilgan.*

*Hadis – bu insonning xulq-atvori, muomala madaniyati va turmush tarziga oid muhim fikrlarni o‘z ichiga olgan qisqa, mazmunli matndir. Ular orqali jamiyatda yaxshilik va*

yomonlik mezonlari aniqlanadi. Hadis tushunchasi odatda insonning axloqiy fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi qisqa, aniq va mazmunli fikrlarni anglatadi. Bu fikrlar orqali inson qanday yashashi, qanday munosabatda bo'lishi, nimani to'g'ri yoki noto'g'ri deb bilishi kerakligi haqida muhim yo'nalishlar beriladi. Hadisshunoslik esa ana shu hadislarni o'rganish, ularning qanchalik ishonchli ekanligini aniqlash, manbalarini tekshirish va mazmunini sharhlash bilan shug'ullanuvchi ilmiy sohadir.

Imom al-Buxoriy 810-yilda Buxoro shahrida dunyoga kelgan bo'lib, u bolalik davridan boshlab o'zining o'tkir tafakkuri va kuchli xotirasi bilan ajralib turgan. Ayniqsa, hadislarni tez yodlab olish qobiliyati uning ilm yo'lida muvaffaqiyat qozonishida muhim omil bo'lgan. Ilmga bo'lgan chuqur qiziqish uni yoshligidanoq uzoq o'lkalarga safar qilishga undaydi. U hadis ilmini puxta egallash maqsadida Hijoz, Iroq, Shom hamda Misr kabi ilm markazlariga borib, o'sha davrning yetuk bilimdonlaridan ta'lim olgan. Bu jarayonda u juda katta hajmdagi hadislarni jamlagan va ularni shunchaki yig'ib qo'ymasdan, har birini ilmiy jihatdan tahlil qilgan. Olimning eng muhim ilmiy merosi sifatida "Al-jome' as-sahih" asari alohida e'tiborga loyiqdir. Ushbu asar ko'p yillik izlanishlar mahsuli bo'lib, uni yaratish jarayoni qariyb o'n olti yil davom etgan. Shu vaqt mobaynida muallif har bir hadisni alohida tekshiruvdan o'tkazib, uning ishonchlilik darajasini aniqlashga katta e'tibor qaratgan. Manbalarda keltirilishicha, u yuz minglab hadislarni ko'rib chiqib, ulardan faqat eng ishonchlilarini saralab olgan va natijada asarga yetti mingga yaqin hadisni (takrorlari bilan) joylashtirgan. Bu esa uning ilmiy faoliyatida naqadar mas'uliyat va aniqlik ustuvor bo'lganini ko'rsatadi<sup>6</sup>.

Imom Buxoriyning shogirdlari islom olamida ta'nilgan olimlar edi. Ular ko'plab qimmatli asarlari bilan hadis ilmining rivojiga salmoqli hissa qo'shgan. Imom Buxoriyning shogirdlari eng ishonchli muhaddislar darajasiga yetgan. Jumladan, olti ishonchli hadis to'plamining mualliflari orasidan Imom Muslim, Imom Termiziy, Imom Nasoiy va Imom Abu Dovud kabi buyuk muhaddislar undan tahsil olib, hadis rivoyat qilgan. Imom Buxoriyning darslarida yigirma ming talaba hadis tinglash uchun jamlanar edi<sup>7</sup>. Hadis ilmining rivojlanishida Imom at-Termiziy ham muhim o'rin tutadi. Uning "Sunan at-Termiziy" asari hadislarni o'rganishda keng qo'llaniladigan manbalardan biridir. Ushbu ikki olimning asarlarini qiyoslash shuni ko'rsatadiki, ular bir maqsadga xizmat qilgan bo'lsa-da, uslub jihatidan farqlanadi. Imom al-Buxoriy asarida hadislarni tanlashda nihoyatda qat'iy mezonlarga amal qilgan bo'lsa, Termiziy hadislarni izohlash va ularning darajasini tushuntirishga ko'proq e'tibor qaratgan. Shu sababli Buxoriy asari ishonchlilik

<sup>6</sup> Imom Buxoriy. Sahihi Buxoriy. – Toshkent: O'zbekistan milliy ensiklopediyasid davlat ilmiy nashriyoti, 2008.

<sup>7</sup> Imom Buxoriy. Xalqaro Ilmiy-Tadqiqot Markazi. – Toshkent, 2023.

jihativdan yuqori baholansa, Termiziy asari o'rganish va tushunish jihativdan qulaylik yaratadi.

Rasululloh (s.a.v.)dan: "Ey Allohning Rasuli, odamlar ichida yaxshilik qilishimga eng haqli kishi kim?" deb so'ralganda, u zot: "Onang", dedilar. "Keyin-chi?" deb so'ralganda, "Onang", dedilar. "Keyin-chi?" deb so'ralganda, yana "Onang", dedilar. "Keyin-chi?" deb so'ralganda, "Otang", dedilar. (Imom Buxoriy va Muslim rivoyati). Mazkur hadisning didaktik ahamiyati shundaki, u insonni eng avvalo o'ziga eng yaqin bo'lgan insonlarga e'tiborli bo'lishga o'rgatadi. Ayniqsa, onaga uch marta ustunlik berilishi uning farzand uchun qilgan mehnati, sabri va fidoyiligi bilan bog'liq. Ona farzandni dunyoga keltirish, tarbiyalash va voyaga yetkazish jarayonida juda katta jismoniy va ruhiy mehnat qiladi. Shu sababli hadis orqali yoshlar ongiga minnatdorlik, hurmat va e'tibor kabi fazilatlar singdiriladi.

Nabiy sollallohu alayhi vasallam: "Kim ota onasiga yaxshilik qilsa, unga Tubo (jannat) bo'lsin, Alloh azza va jalla uning umrini ziyoda qilsin", deganlar. (Imom Buxoriy rivoyati). Mazkur hadis orqali bizga ota-onaga hurmatda bo'lishimiz, ularni doimo ardoqlashimiz, ularga har doim yaxshilik qilishimiz kerakligi uqtiriladi. Zero ota-ona bu bizni dunyoga kelishimiz uchun sababchi bo'lgan, bizni oq yuvib, oq taragan, farzandlari uchun doimo yaxshilikni ravo ko'radigan zotlardir. Hattoki, yuqoridagi hadisda ham ota-onasiga mehribon bo'lgan, ularga yaxshilik tilagan insonga Jannat bo'lsin deyilyapti. Shundan ko'rinib turibdiki, ota-ona bu bizning hayotimizdagi bebaho boyligimizdir.

"Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytganlar: Alloh taolo menga yuborgan hidoyat va ilm ko'p yog'gan yomg'irga o'xshaydi. Ba'zi yerlar unumdor bo'lib, yomg'irni o'ziga singdiradi va turli o'simliklar o'stiradi. Ba'zi yerlar esa qattiq bo'lib, suvni o'zida saqlaydi va undan odamlar ichadi, hayvonlar va ekinlar foyda ko'radi. Yana ba'zi yerlar tekis bo'lib, suvni ham ushlab qolmaydi, hech narsa ham o'stirmaydi. Shunga o'xshab, insonlar ham uch xil bo'ladi: bir kishi ilmni o'rganadi, tushunadi, unga amal qiladi va boshqalarga ham o'rgatadi — bu eng yaxshi inson; ikkinchi kishi ilmni o'rganadi va boshqalarga o'rgatadi, lekin o'zi amal qilmaydi; uchinchi kishi esa ilmni ham o'rganmaydi, boshqalarga ham o'rgatmaydi. Demak, eng fazilatli inson ilmni o'rganib, unga amal qilib, boshqalarga foyda keltiradigan insondir" (Imom Buxoriy rivoyati).

Bu hadisda ilm yomg'irga o'xshatiladi. Yomg'ir turli yerlarga tushib har xil natija bergani kabi, ilm ham insonlarga turlicha ta'sir qiladi.

Birinchi turdagi inson ilmni o'rganadi, chuqur tushunadi, unga amal qiladi va boshqalarga ham o'rgatadi. Bu eng yaxshi inson bo'lib, hadisda mo'min deb ta'riflanadi. Ikkinchi turdagi inson ilmni o'rganadi va uni boshqalarga yetkazadi, lekin o'zi amal qilmaydi. U foyda keltiradi, ammo o'zida kamchilik borligi sababli fosiq deb aytiladi. Uchinchi turdagi inson esa ilmni ham o'rganmaydi, boshqalarga ham o'rgatmaydi, ya'ni

umuman foydasiz bo'ladi. Bu eng yomon holat bo'lib, hadisda kofirga o'xshatiladi. Demak, bu hadisning asosiy mazmuni shundan iboratki, ilmni faqat o'rganish yetarli emas, balki unga amal qilish va boshqalarga o'rgatish ham zarur. Eng fazilatli inson — ilmni o'zida jamlab, uni hayotida qo'llab, boshqalarga ham foyda keltiradigan insondir.

**Xulosa:** Xulosa qilib aytganda, Imom al-Buxoriyning "Al-jome' as-sahih" asari o'zining ilmiy ishonchliligi, badiiy soddaligi va didaktik kuchi bilan ajralib turadi. Ushbu asar insonni to'g'ri yo'lga boshlovchi, uning ichki dunyosini boyituvchi va jamiyatda sog'lom muhitni shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim manbalardan biridir. Shuning uchun ham u nafaqat o'tmishda, balki bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda va kelajak avlodlar uchun ham muhim ilmiy va tarbiyaviy meros bo'lib qoladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Imom Buxoriy. Al-Adab al-mufrad. Tarjimonlar Sh.Boboxonov, N.Abdumajid. – Toshkent: Movarounnahr, 2006.
3. Al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Al-Jome' as-sahih (ishonchli to'plam), 4 jildlik. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1991-1995.
4. Hayrullayev M.M. O'rta Osiyoda ilk uyg'onish davri madaniyati. –Toshkent: Fan, 1994.
5. Imom Buxoriy. Sahih Buxoriy. – Toshkent: O'zbekistan milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
6. Haqqulov, M.Y.O.G.L. (2022). Science and Education, 3(10), 385-389.
7. Yunusovich, H.M. (2024). European Journal Of Innovation In Nonformal Education, 4(9), 129-132.

